

1-SINFDA KICHIK MASALARNI YECHISHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI

Turayev Jahongir Saparaliyevich
*Baxmal tumani 56-umum o'rta ta'lim
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida, xususan 1-sinfda kichik hajmli matematik masalalarni yechishga o'rgatish metodikasi yoritilgan. Kichik masalalar orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarishko'nikmalarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, masalarni yechishda ko'rgazmali vositalar, o'yin texnologiyalari va zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, 1-sinf, kichik masalalar, matematik savodxonlik, mantiqiy fikrlash, o'qitish metodikasi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida matematika fanini o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda masala yechish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, 1-sinfda kichik masalarni yechishga o'rgatish keyingi sinflarda murakkab masalarni o'zlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu sababli kichik masalalarni o'rgatish metodikasini to'g'ri tashkil etish muhim pedagogik ahamiyatga ega. 1-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan kichik masalalar odatda bir yoki ikki amal asosida tuziladi. Bunday masalalar o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Masalani tushunish jarayonida o'quvchi uning shartini o'qiydi, muhim ma'lumotlarni ajratib oladi va yechimni izlaydi.

Kichik masalalarni yechishga o'rgatishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

1. Ko'rgazmali vositalar (rasmlar, predmetlar, sxemalar)
2. Og'zaki tahlil va savol-javob usuli

3. Didaktik o'yinlar

4. Hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalar

Masalan, "3 ta olma bor edi, yana 2 ta olma qo'shildi. Jami nechta olma bo'ldi?" kabi masalalar orqali qo'shish amalining mazmuni oson tushuntiriladi. Bu jarayonda o'quvchilar faol ishtirok etib, mustaqil fikrlashga o'rganadilar.

Kundalik hayotdan olingan sodda masalalar o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Bu jarayonda o'qituvchining rahbarligi va yo'naltiruvchi savollari muhim ahamiyatga ega. Kichik masalalar-bu hayotiy vaziyatlarga asoslangan, sodda arifmetik amallar (qo'shish va ayirish) yordamida yechiladigan masalalardir. Bunday masalalar orqali o'quvchilar; son va miqdor tushunchasini anglaydi, matematik nutqi rivojlanadi, mustaqil fikrlashga o'rganadi. Zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish o'qitish samaradorligini oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilaydi.

Kichik masalalar orqali o'quvchilar :

- berilgan ma'lumotni tahlil qilish;
- asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratish;
- sodda xulosalar chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar;

1-sinf o'quvchilari abstrakt fikrlashga endigina o'rganayotgan bo'lib, ular uchun ko'rgazmalilik muhim hisoblanadi. Shu sababli kichik masalalarni yechishda aniq predmetlar, rasmlar va sxemalardan foydalanish yuqori samara beradi. O'yin elementlari bilan boyitilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning diqqatini jamlashga va darsga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Masala yechishga o'rgatishning metodik bosqichlari

1-sinfda kichik masalarni yechishga o'rgatish quyidagi izchil bosqichlar asosida tashkil etilishi lozim.

1. Masala matnini ifodali o'qish va tushunish;
2. Masalada berilgan sonli ma'lumotlarni aniqlash;
3. Masala shartini rasm yoki sxema orqali ifodalash;
4. Mos arifmetik amalni tanlash

5. Yechimni bajarish va natijani tekshirish;Kichik masalarni yechishda ko'rgazmali vositalardan foydalanish o'quvchilarning mavzuni tez va samarali o'z lashtirishga yordam beradi.Sanoq cho'plari,kartochkalar,rangli rasmlar va interaktiv taqdimotlar dars jarayonini jonlantiradi.Shuningdek,juftlikda va guruhda ishlash usullari o'quvchilarning o'zaro fikr almashishiga yordam beradi.O'qituvchi masala yechish jarayonida o'quvchilarga tayyor yechimni bermasdan ,ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirishi lozim.Savol-javob usuli ,rag'batlantirish va individual yondashuv kichik masalalarni yechishda ijobiy natija beradi. "Kim tez va to'g'ri topadi" nomli didaktik o'yinidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.Mazkur o'yin 1-sinf o'quvchilarda kichik hajmdagi masalalarni tushunish ,berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va to'g'ri arifmetik amalni tanlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.O'yin uchun kerakli jihozlar

-rangli kartochkalar

-sonlar yozilgan kartalar (1-10)

-rasmlar(olma,qush,shar va h.k.)

-magnitli doska yoki stol usti

O'yin borishi

1.O'qituvchi doskaga rasmi kichik masalani iladi.Masalan:Daraxtda 4 ta qush bor edi.Yana 2 ta qush uchib keldi. Daraxtda nechta qush bo'ldi?

2.O'quvchilar masalani birgalikda o'qiydilar va muhokama qiladi

3.Har bir o'quvchi yoki guruh rasm asosida masalani ifodalaydi va kerakli sonli kartochkalarni tanlaydi4.O'quvchilar mos amalni bajarib,javobni ko'rsatadilar

5.Eng tez va to'g'ri javob bergan o'quvchi yoki guruh rag'batlantiriladi

Xulosa qilib aytganda,1-sinfda kichik masalalarni yechishga o'rgatish boshlang'ich ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.To'g'ri tanlangan metod va vositalar orqali o'quvchilarda matematik savodxonlik ,mantiqiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.Ushbu metodik yondashuvlar keyingi sinflarda murakkab masalalarni o'zlashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi „, Ta‘lim-to‘g‘risida”gi Qonuni.-Toshkent,2020.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.Boshlang‘ich ta‘lim davlat ta‘lim standarti.-Toshkent,2021.
- 3.Alimuhamedov R,Jo‘rayev R.Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi.-Toshkent:O‘qituvchi,2018.
- 4.Bikboyeva N.U.Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi.-Toshkent:Fan va texnologiya,2019.
- 5.Jumayev M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika ta‘limining nazariy asoslari.-Toshkent:Sharq,2020.
- 6.Saidova M.J. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida masala yechish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari // Xalq ta‘limi jurnali.-Toshkent,2021.-N_3-B.45-48
- 7.Qosimova K. Matchonov S. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi.-Toshkent: Noshir,2017